

DOI: 10.5281/zenodo.16601754

Link: <https://zenodo.org/records/16601754>

MASOFAVIY AUDIT O‘TKAZISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR

Obidov Abrorbek Olimjon o‘g‘li

“Xududgazta‘minot” AJning

ichki audit xizmati rahbari

abror-obidov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada masofaviy audit o‘tkazish jarayonlarini mazmun-mohiyati va konseptual asosi yoritilib berilgan. Mavzu doirasida xorijiy adabiyotlar va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlari o‘rganilib, muallifning tomonidan masofaviy audit o‘tkazish jarayonlarini takomillashtirish: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlarga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: audit, masofaviy audit, nazorat, konseptual asos, ichki audit, buxgalteriya hisobi.

KIRISH

Dunyo mamkallatlarida zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida korporativ boshqaruv tizimlarining ochiqligi, moliyaviy shaffoflik va samarali nazorat mexanizmlarining joriy etilishi barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, auditori tizimini zamon talablari asosida transformatsiya qilish, xususan, masofaviy audit amaliyotini joriy etish bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi uchun dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Masofaviy audit — bu raqamli texnologiyalar orqali auditorlik faoliyatini masofadan turib, ya‘ni bevosita mijozning joylashuv manziliga tashrif buyurmasdan amalga oshirish imkonini beruvchi innovatsion yondashuv bo‘lib, xalqaro tajriba asosida shakllanayotgan yangi standart va uslublarning mahsulidir. Ushbu amaliyot auditorning aniqligi, tezligi va izchilligini oshirish, auditorlarning ish unumdorligini ko‘paytirish, korxonalarining texnologik infratuzilmasidan to‘liq foydalanish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasida raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi, axborot texnologiyalarining barcha sohalariga joriy etilishi masofaviy auditorga o‘tish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 28-yanvarda imzolangan PF-60-sonli “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, moliyaviy shaffoflikni ta‘minlash va davlat boshqaruv tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu strategik hujjatda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishda masofaviy auditor amaliyoti muhim o‘rin tutishi shubhasizdir [1].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida moliyaviy hisobot tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga moslashtirish hamda buxgalteriya hisobini raqamlashtirish masalalari ustuvor yo‘nalishlar sifatida qayd etilgan. Ana shu yo‘nalishlar doirasida masofaviy auditni bosqichma-bosqich joriy etish, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirish va real vaqt rejimida nazoratni kuchaytirish imkonini beradi.

Shunday qilib, masofaviy auditni O‘zbekistonda joriy etish, bir tomondan, xalqaro standartlarga mos va raqamlashtirilgan moliyaviy axborot tizimining shakllanishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, milliy audit tizimini modernizatsiya qilish va global amaliyotlarga integratsiyalashish imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatimizda iqtisodiy ochiqlik, hisobdorlik va samaradorlik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi [2].

ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzu doirasida adabiyotlar sharhi o‘rganilganda bir qancha xorijiy va mahalliy olimlarning fikrlari tahlil qilindi, xususan:

M.V.Melnikning fikri alohida e‘tiborga molik bo‘lib, uning ta’kidlashicha, «...audit – bu xo‘jalik yurituvchi subyektlarda uni boshqarish organlarining manfaatlariga muvofiq tashkil etiladigan va uning ichki hujjatlari bilan tartibga solinadigan, ichki nazorat tizimining alohida tarkibiy qismlari ishonchliligi va samaradorligini aniqlash maqsadida ushbu subyekt ishini tekshirish va baholash bo‘yicha faoliyatdir»[3]

K.B.Axmedjanov tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirishning ayrim masalalari ochib berilgan. Sohaga oid ko‘plab adabiyotlar va me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ichki audit tushunchasiga ta’riflar va izohlar berilgan. K.B.Ahmadjonov ichki auditga shunday ta’rif beradi: «ichki audit – xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy-xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan obyektiv kafolat va maslahatlar beruvchi mustaqil tizim hisoblanadi, ichki audit buxgalteriya ma’lumotlarining to‘g‘riligini ta’minlash va korxonada samarali ichki nazorat tizimini tashkil etishga yo‘naltirilgan faoliyatdir[4].

A.Turayev «ichki audit» tushunchasiga mualliflik ta’rifi quydagicha bergan va unga ko‘ra ichki audit risklarni boshqarish, ichki nazorat tizimlarining ishonchliligi va samaradorligini, jumladan korporativ boshqaruv amaliyotini ichki nazorat sohasidagi umumqabul qilingan xalqaro va milliy standartlar asosida muntazam va mustaqil ravishda baholash uchun tashkil etilgan faoliyat sifatida ochib bergan[5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda muallif tomonidan umum-metodologik usullar foydalangan bo‘lib ularga quyidagilar kiradi: tasniflash, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, induksiya, deduksiya va ilmiy ma’lumotlarni tizimlashtirish. Shu bilan birgalikda tadqiqot ishini tashkil qilish va bajarish jarayonida buxgalteriya hisobi usullari asosida ekspertlar bahosi, qiyosiy tahlil, kontent va invent tahlil, tizimli va omilli tahlil kabi usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Masofaviy audit tushunchasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida shakllangan zamonaviy audit yondashuvidir. Uning nazariy asoslari klassik auditorlik nazariyasiga tayanadi, ya'ni moliyaviy va operatsion faoliyatning ishonchliligi, shaffofligi hamda qonunchilikka muvofiqligini baholash maqsadida mustaqil tekshiruvni tashkil etish prinsiplariga asoslanadi.

Masofaviy auditda asosiy farq – auditor va audit qilinuvchi o'rtasidagi jismoniy muloqot o'rniga virtual aloqalar va raqamli axborot vositalarining qo'llanilishidir. Bunda auditorlik faoliyatining asosiy funksiyalari (rejalashtirish, dalil to'plash, tahlil qilish va hisobot tayyorlash) zamonaviy raqamli platformalar orqali amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv, bir tomondan, nazoratni kengaytiradi, boshqa tomondan esa resurslarni tejaydi va tekshiruv jarayonini soddalashtiradi.

Masofaviy auditning nazariy asosi, shuningdek, riskka asoslangan yondashuvga, ichki nazorat tizimining bahosiga va raqamli ishonch (digital trust) konsepsiyasiga tayanadi. Bu esa auditorlarga resurslar va ma'lumotlar oqimining xavfsizligi hamda ishonchliligini masofadan turib baholash imkonini beradi.

So'nggi yillardagi tahlillarga ko'ra amaliyotda masofaviy auditlarning turli sohalarda samarali tatbiq qilinayotganini ko'rsatmoqda. Quyidagi misollar ushbu yondashuvning real sohalardagi muvaffaqiyatini yoritadi:

Masofaviy auditlar ayniqsa COVID-19 pandemiyasi davridan boshlab farmatsevtika sohasida keng qo'llanila boshlandi. Bu sohaga xos qat'iy tartib-qoidalar va xalqaro reglamentlarga muvofiqlikni ta'minlashda masofaviy tekshiruvlar o'zini samarali vosita sifatida namoyon qilmoqda. Xususan, xalqaro tashkilotlardan biri bo'lgan Rx-360 masofaviy auditlar bo'yicha kompleks qo'llanmalar va ilg'or amaliyotlarni ishlab chiqqan. Ularning tajribasi masofaviy auditlarning nafaqat nazoratni kuchaytirish, balki ta'minot zanjirining uzluksizligini saqlashda ham muhim vosita ekanini tasdiqlaydi.

Afzalliklar	Mazmuni
Xarajatlarni tejash	Auditorlar va audit qilinayotgan tomonlar uchun safar xarajatlari yo'q qilinadi, bu esa audit bilan bog'liq umumiy xarajatlarni sezilarli kamaytiradi.
Moslashuvchanlikning oshishi	Auditlar global jamoalar uchun qulay vaqtga belgilanishi mumkin bo'lib, ish faoliyatiga minimal darajada xalaqit beradi.
Keng qamrovli kirish imkoniyati	Geografik jihatdan uzoq joylashgan obyektlar yoki filiallarni masofaviy audit qilish imkoniyati yaratiladi, bu esa muvofiqlik va inklyuzivlikni ta'minlaydi.
Real vaqt rejimida ma'lumotga kirish	Raqamli hujjatlar va tizimlarga tezkor kirish imkoniyati mavjud bo'lib, bu tekshiruvni soddalashtiradi va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi.

1-rasm. Masofaviy auditni joriy etishning afzalliklari

Masofaviy auditlar energetika sohasida ham o'zining ahamiyatini namoyon qilmoqda. AQShdagi Federal Energiya Boshqaruvi Dasturi (FEMP) tomonidan masofaviy auditlarni amalga oshirish bo'yicha maxsus o'quv kurslari ishlab chiqilgan. Ushbu kurslar FEDS (Facility Energy Decision System) tizimiga asoslangan bo'lib, u federal energetika mutaxassislari va pudratchilarga masofaviy tarzda ob'yektlar

energiya samaradorligini baholash, audit talablarini bajarish va hisobotlarni tayyorlashda yordam beradi. Bu esa energiya sohasidagi samaradorlik va hisobotlarning aniqligini oshiradi.

Masofaviy audit zamonaviy texnologiyalarga asoslangan innovatsion yondashuv bo‘lib, ko‘plab afzalliklarga ega. Xususan, u auditorlik xarajatlarini kamaytirish, audit jarayonini soddalashtirish, geografik cheklovlarni bartaraf etish hamda resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi. Biroq, bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishda qator muammolar yuzaga keladi. Ushbu muammolarni samarali hal etish uchun tizimli yondashuv va ilg‘or amaliy tajribalarni qo‘llash zarur.

Birinchidan, masofaviy audit jarayonida ma‘lumotlar xavfsizligi dolzarb muammo sifatida yuzaga chiqadi. Virtual muhitda o‘tkaziladigan audit davomida tashkilotlarning maxfiy moliyaviy va operatsion ma‘lumotlari almashiladi. Ushbu axborotlarning uchinchi shaxslar qo‘liga tushishi yoki kiberhujumlar xavfi katta bo‘lib, bu audit ishonchliligiga jiddiy tahdid soladi. Shuning uchun kuchli kiberxavfsizlik tizimlarini joriy etish, xususan, shifrlangan aloqa vositalari, xavfsiz ma‘lumotlar bazalari, foydalanuvchini autentifikatsiya qilish va xavfsizlik devorlarini barpo etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bular masofaviy auditning xavfsiz va ishonchli tarzda o‘tkazilishini ta‘minlaydi.

Ikkinchidan, masofaviy audit sharoitida audit jarayonining ishonchliligini saqlash ham alohida e‘tiborni talab qiladi. An‘anaviy auditlarda auditorlar bevosita hujjatlar bilan tanishadi, obyektlarni ko‘zdan kechiradi. Masofaviy auditda esa bunday imkoniyatlar cheklangan. Shu sababli, audit protseduralarini standartlashtirish, barcha bosqichlarni to‘liq hujjatlashtirish, shuningdek, shaffof audit izlarini yuritish zarur hisoblanadi. Bu amaliyot audit natijalari asosli, aniq va huquqiy jihatdan ishonchli bo‘lishini kafolatlaydi.

Uchinchidan, texnologik infratuzilmaga qaramlik va undan samarali foydalanish masalasi mavjud. Masofaviy audit asosan raqamli vositalar, dasturiy ta‘minot va internet tarmog‘iga bog‘liq bo‘lganligi sababli, texnik nosozliklar audit sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Buning oldini olish maqsadida auditorlar va manfaatdor tomonlar o‘rtasida masofaviy audit vositalaridan foydalanish bo‘yicha uzluksiz o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etilishi lozim. Malakali texnik yordam jamoalarining doimiy ko‘magida texnologik muammolar tezkor bartaraf etilishi mumkin.

Raqamli transformatsiya jarayoni jadal sur‘atlar bilan davom etayotgan hozirgi davrda masofaviy auditlar ham o‘zining yangi bosqichiga kirib bormoqda. Ular nafaqat moliyaviy tekshiruvlarda, balki barqarorlik, ekologiya va raqamli xavfsizlik sohalarida ham keng qo‘llanilmoqda. Kelgusida masofaviy audit amaliyotining takomillashuvi bir qator ilg‘or texnologiyalar bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Jumladan, sun‘iy intellekt (AI) texnologiyalari masofaviy auditlarda murakkab tahlil va bashoratli funksiyalarni avtomatlashtirish orqali audit jarayonining aniqligi va samaradorligini oshiradi. Shuningdek, blokcheyn texnologiyasining joriy etilishi audit jarayonini yanada shaffof va ishonchli qilish imkonini beradi, chunki bu texnologiya o‘zgartirib bo‘lmaydigan yozuvlar va tasdiqlanuvchi izlar yaratadi. Bunga qo‘shimcha ravishda, IoT sensorlar va dronlar orqali jismoniy aktivlarni masofadan turib kuzatish

imkoniyati kengayadi, bu esa auditning faqat raqamli hujjatlar bilan cheklanib qolmasligini ta'minlaydi.

Shuningdek, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari yordamida auditorlar masofadan turib obyektlar holatini baholashi, texnik uskunalarni tekshirishi va global miqyosdagi jamoalar bilan interaktiv hamkorlikni amalga oshirishi mumkin bo'ladi. Bunday texnologiyalar masofaviy tekshiruvlarni yanada real va ishonchli qiladi.

Masofaviy auditlar jarayonida kiberxavfsizlik muammolari ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu sababli, shifrlash algoritmlari, xavfsiz ma'lumot uzatish protokollari va boshqa ilg'or xavfsizlik choralari yordamida audit paytida ma'lumotlarning himoyasi ta'minlanadi. Bundan tashqari, xalqaro miqyosda masofaviy audit metodologiyalarini standartlashtirish bo'yicha olib borilayotgan tashabbuslar ushbu jarayonning turli mintaqa va sohalarda bir xil darajada aniqlik va ishonchlik bilan amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan. Ayniqsa, so'nggi yillarda masofaviy audit texnikalari ekologik baholash, barqaror rivojlanish indikatorlari va uglerod izi monitoringida ham faol qo'llanilib, global barqarorlik maqsadlariga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, masofaviy auditlar zamonaviy audit yondashuvining muhim bosqichi bo'lib, u an'anaviy audit metodlaridan farqli o'laroq, raqamli vositalar orqali nazorat va tahlil jarayonlarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv, birinchi navbatda, tashkilotlarga audit jarayonlarini geografik masofalardan qat'i nazar amalga oshirish imkonini beradi. Masofaviy auditning joriy etilishi hisobdorlik, aniqlik va samaradorlikni oshirish bilan bir qatorda, auditorlik faoliyatida vaqt va xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Bunda turli innovatsion texnologiyalardan – masalan, sun'iy intellekt, bulutli xizmatlar, real vaqt rejimidagi ma'lumotlar almashinuvi, shuningdek, blokcheyn kabi xavfsizlikni ta'minlovchi platformalardan foydalaniladi. Ular auditorlarga katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkorlik bilan tahlil qilish, risklarni aniqlash va aniq tavsiyalar berish imkonini yaratadi.

Shuningdek, masofaviy auditlar tartibga soluvchi normalar va xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Bu esa tashkilotlarning barqaror rivojlanishi, ochiqligi va global iqtisodiy muhitga moslashuvchanligini kuchaytiradi. Shu tariqa, masofaviy auditlar kelajakda ham o'z ahamiyatini oshirib borishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” farmon (<https://lex.uz/uz/docs/5841063>).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 24.02.2020 yildagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” qarori (<https://lex.uz/ru/docs/4746047>).

3. Мельник М.В., Пантелеев А.С., Звездин А.Л. Ревизия и контроль: Учебное пособие / Под ред. проф. М.В. Мельник. - М.: ИД ФБК-ПРЕСС, 2003. - 520 с.
4. Ахмаджонов К.Б. Иқтисодиётни модернизация қилиш шароитида ички аудит методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореф. – Т., 2016. – 76 б.
5. Тўраев А.Н. Хўжалик юритувчи субъектларда ички аудит хизматининг назарий ва амалий масаллари. Монография. – Т.: LESSON PRESS, 2017. – 213 б.
6. Lynn Fountain Leading the Internal Audit Function (Internal Audit and IT Audit), 2015 – 293 pg.
7. Ерофеева В.А., Пискунов В.А., Битюкова Т.А. Аудит. – М.: Юрайт, Высшее образование, 2010. – с. 75.
8. Norman Marks World-Class Internal Audit: Tales from my Journey, 2014 – 244 pg.
9. Paul J. Sobel, Urton L. Anderson, Michael J. Head, Sridhar Ramamoorti, Mark Salamasick, Cris Riddle Internal Auditing: Assurance & Advisory Services, Third Edition 3rd Edition, 2013 – 594 pg.
10. <http://www.aasb.com> International Auditing and Assurance Standards Board.
11. <http://uzaudit.uz/> Ўзбекистон Аудиторлар Палатаси расмий сайти
12. <https://global.theiia.org> – Ички аудиторлар институтининг расмий веб сайти маълумотлари